



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar- oktabr oylari
uchun dastlabki ma’lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(71) 202-80-44(45)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar- oktabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 54,4 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan 3,4 mlrd AQSH dollariga yoki 6,7 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar - oktabr, mln AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **54 367,2 (+6,7 %)**

(2023- y.: **50 973,8**)



Saldo

2024- y.: **-9 482,0** (2023- y.: **-10 033,3**)




Eksport

2024- y.: **22 442,6 (+9,6 %)**

(2023- y.: **20 470,2**)

TSA'dagi ulushi



Import

2024- y.: **31 924,6 (+4,7 %)**

(2023- y.: **30 503,6**)

TSAda eksport hajmi 22 442,6 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 9,6 % ga ko'paydi) va import hajmi 31 924,6 mln AQSH dollariga (4,7 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 9 482,0 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.













O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar- oktabr, mln AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.

O'zbekiston Respublikasi jahonning 194 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,8 %), Rossiyada (17,8 %), Qozog'istonda (6,3 %), Turkiyada (4,5 %) va Koreya Respublikasida (3,0 %) qayd etilgan.











<p>XXR</p> <p>TSA – 10 237,9</p> <p>Eksport: 1 721,5 Import: 8 516,5</p>  18,8 %	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 9 693,4</p> <p>Eksport: 3 098,5 Import: 6 594,9</p>  17,8 %	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 3 423,5</p> <p>Eksport: 1 146,3 Import: 2 277,2</p>  6,3 %	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 2 429,1</p> <p>Eksport: 937,4 Import: 1 491,7</p>  4,5 %	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 1 476,8</p> <p>Eksport: 30,4 Import: 1 627,7</p>  3,0 %
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 969,8</p> <p>Eksport: 71,6 Import: 898,1</p>  1,8 %	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 947,7</p> <p>Eksport: 99,2 Import: 848,5</p>  1,7 %	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 930,1</p> <p>Eksport: 641,9 Import: 288,2</p>  1,7 %	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 884,2</p> <p>Eksport: 855,9 Import: 28,3</p>  1,6 %	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 770,6</p> <p>Eksport: 91,6 Import: 679,0</p>  1,4 %



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar- oktabr, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 XXR	7 635,5	10 804,3	10 237,9
<i>Eksport</i>	2 347,9	2 054,8	1 721,5
<i>Import</i>	5 287,5	8 749,5	8 516,5
 Rossiya	7 521,7	7 930,0	9 693,4
<i>Eksport</i>	2 542,2	2 668,2	3 098,5
<i>Import</i>	4 979,4	5 261,8	6 594,9
 Qozog'iston	3 714,7	3 592,4	3 423,5
<i>Eksport</i>	1 141,4	1 165,1	1 146,3
<i>Import</i>	2 573,3	2 427,3	2 277,2
 Turkiya	2 806,2	2 614,2	2 429,1
<i>Eksport</i>	1 401,2	1 111,7	937,4
<i>Import</i>	1 405,0	1 502,6	1 491,7
 Koreya Respublikasi	1 967,0	1 878,5	1 658,1
<i>Eksport</i>	32,9	33,1	30,4
<i>Import</i>	1 934,1	1 845,5	1 627,7
 Germaniya	876,5	876,7	969,8
<i>Eksport</i>	87,3	67,5	71,6
<i>Import</i>	789,3	809,1	898,1
 Turkmaniston	835,7	939,1	947,7
<i>Eksport</i>	186,6	143,7	99,2
<i>Import</i>	649,1	795,5	848,5
 Fransiya	252,7	773,3	930,1
<i>Eksport</i>	68,8	348,4	641,9
<i>Import</i>	183,8	424,9	288,2
 Afg'oniston	591,1	693,5	884,2
<i>Eksport</i>	583,8	685,8	855,9
<i>Import</i>	7,3	7,7	28,3
 Hindiston	558,6	609,4	770,6
<i>Eksport</i>	29,3	101,5	91,6
<i>Import</i>	529,3	507,9	679,0

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
AQSH	362,2	501,4	726,9
 <i>Eksport</i>	54,7	119,8	260,8
<i>Import</i>	307,5	381,6	466,2
Qirg'iz Respublikasi	1 019,8	814,1	675,6
 <i>Eksport</i>	802,7	566,5	444,8
<i>Import</i>	217,1	247,6	230,8
Belarus	420,1	508,0	582,1
 <i>Eksport</i>	93,8	109,4	133,6
<i>Import</i>	326,3	398,6	448,5
Tojikiston	538,1	605,6	564,2
 <i>Eksport</i>	403,9	475,9	441,5
<i>Import</i>	134,2	129,8	122,7
Litva	410,2	516,6	532,8
 <i>Eksport</i>	75,8	114,1	158,1
<i>Import</i>	334,3	402,5	374,7
BAA	401,3	515,1	526,1
 <i>Eksport</i>	85,8	205,8	204,8
<i>Import</i>	315,4	309,3	321,3
Eron	382,1	418,4	405,2
 <i>Eksport</i>	137,7	148,8	136,7
<i>Import</i>	244,4	269,6	268,5
Braziliya	462,5	587,4	403,2
 <i>Eksport</i>	1,1	2,6	9,0
<i>Import</i>	461,5	584,8	394,1
Chexiya	134,8	311,1	384,8
 <i>Eksport</i>	25,9	44,2	47,7
<i>Import</i>	108,9	266,9	337,1
Italiya	324,8	417,7	369,1
 <i>Eksport</i>	49,2	60,2	37,6
<i>Import</i>	275,6	357,5	331,5

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI *

(2024- yil yanvar- oktabr, mln AQSH doll.)




Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 38,5 % ulush bilan 20 910,2 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,6 % ulush bilan 323,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar- oktabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-oktabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 - yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko'paydi.

O'zbekiston bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan respublika eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar- oktabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 65,1 % ni tashkil etdi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, 18 951,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 7 456,5 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 11 495,3 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)

Rossiya – 51,1



Qozog'iston – 18,1



Turkmaniston – 5,0



Qirg'iz Respublikasi – 3,6



Belarus – 3,1



Tojikiston – 3,0



Ozarbayjon – 1,1



Ukraina – 0,9



Armaniston – 0,1




Moldova – 0,1



MDHning erkin savdo hududida savdo qilish O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (51,1 %), Qozog'iston (18,1 %) hamda Turkmaniston (5,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YEOIIGA A‘ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar- oktabr, mln AQSH dollari)



O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 14 396,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 4 839,3 mln AQSH dollari, import hajmi esa 9 557,5 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta‘minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7015 taga yetdi va ular tomonidan 15816,0 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 16,3% ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-oktabr)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	20 470,2	22 442,6	129,1	109,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 456,9	1 709,6	114,1	117,3	7,1	7,6
Ichimliklar va tamaki	99,8	115,0	118	115,2	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	253,2	261,3	78,4	103,2	1,2	1,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	768,3	1 129,4	69,9	147,0	3,8	5,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	9,8	32,7	47,8	3,3 b.	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 080,6	1 366,4	97,5	126,4	5,3	6,1
Sanoat tovarlari	3 379,9	3 408,5	92,5	100,8	16,5	15,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1 096,1	981,5	143,5	89,5	5,4	4,4
Turli xil tayyor buyumlar	1 000,5	876,3	115,1	87,6	4,9	3,9
Boshqa tovarlar	6 905,1	6 859,1	2,3 b.	99,3	33,7	30,6
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	6 870,3	6 626,6	2,3 b.	96,5	33,6	29,5
Xizmatlar	4 420,0	5 702,9	120,5	129,0	21,6	25,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 74,6% ni tashkil etib, ular boshqa tovarlar (30,6%), sanoat tovarlari (15,2%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,6%) va kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,1%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA EKSPORTI
TARKIBI (2024- yil yanvar-oktabr)

 XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 709,6	117,3
Sabzavotlar va mevalar	1 253,7	130,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	308,3	75,6
Go'sht va go'sht mahsulotlari	39,4	14,6 b.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	36,6	3,0 b.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	20,6	90,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	20,5	89,1
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	13,3	116,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	8,7	138,1
Tirik hayvonlar	6,7	145,7
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	1,8	163,6
Ichimliklar va tamaki	115,0	115,2
Tamaki va tamaki mahsulotlari	70,2	152,6
Ichimliklar	44,7	82,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	261,3	103,2
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	102,2	100,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	59,8	136,5
Metall rudalari va metall parchalari	27,5	72,0
Qog'oz massasi va makulatura	26,7	76,7
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	24,8	110,7
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	17,1	198,8
Tabiiy kauchuk	1,8	2,6 b.
Probka va yog'och-taxtalar	1,4	50,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 129,4	147,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	540,4	117,9
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	504,4	194,6
Elektr toki	81,7	162,4
Ko'mir, koks va briketlar	2,9	4,8 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	32,7	3,7 b.
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	32,6	3,4 b.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	0,1	100,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 366,4	126,4
Noorganik kimyo moddalari	742,3	166,6
O'g'itlar	282,2	106,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	193,6	91,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	43,3	68,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	29,2	97,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	25,1	168,5
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	21,1	112,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	16,8	85,7
Organik kimyo moddalari	12,7	119,8


XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	3 408,5	100,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 680,7	97,6
Rangli metallar	1 142,5	101,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	180,8	135,3
Cho'yan va po'lat	163,0	95,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	129,5	118,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	41,7	71,4
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	36,3	105,2
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	18,0	171,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	15,9	165,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	981,5	89,5
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	320,5	78,5
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	226,6	72,5
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	180,1	118,9
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	170,5	91,1
Boshqa transport uskunolari	127,7	134,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	69,1	117,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	62,1	93,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	42,3	41,5
Kanselyariya tovarlari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	6,6	27,8
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,6	83,9
Turli xil tayyor buyumlar	876,3	87,6
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	724,7	86,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	89,8	102,0
Poyabzal	17,2	58,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	14,6	136,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	14,6	113,2
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	8,7	89,7
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	5,7	74,0
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	0,9	45,0
Boshqa tovarlar	6 859,1	99,3
Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	6 626,6	96,5

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH)



2024-yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI *(yanvar-oktabr)*

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	2 668,2	3 098,5	105,0	116,1	1	1
XXR	2 054,8	1 721,5	87,5	83,8	2	2
Qozog‘iston	1 165,1	1 146,3	102,1	98,4	3	3
Turkiya	1 111,7	937,4	79,3	84,3	4	4
Afg‘oniston	685,8	855,9	117,5	124,8	5	5
Fransiya	348,4	641,9	5,1 b.	184,2	8	6
Qirg‘iz Respublikasi	566,5	444,8	70,6	78,5	6	7
Tojikiston	475,9	441,5	117,8	92,8	7	8
AQSH	119,8	260,8	2,2 b.	2,2 b.	13	9
Pokiston	217,1	253,7	151,6	116,9	9	10
BAA	205,8	204,8	2,4 b.	99,5	10	11
Ozarbajjon	108,7	172,8	103,0	158,9	17	12
Litva	114,1	158,1	150,4	138,6	15	13
Eron	148,8	136,7	108,1	91,9	11	14
Belarus	109,4	133,6	116,6	122,2	16	15
Buyuk Biritaniya	114,6	126,0	155,3	110,0	14	16
Turkmaniston	143,7	99,2	77,0	69,1	12	17
Latviya	90,3	92,6	107,6	102,6	19	18
Hindiston	101,5	91,6	3,5 b.	90,2	18	19
Polsha	80,1	82,7	69,7	103,2	20	20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)



2024-yil yanvar-oktabr

2023-yil yanvar-oktabr

Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 19,9 % bilan 4 459,9 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Jizzax viloyati 0,7 % bilan 163,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida 1 698,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,7 % yoki 230,5 ming tonnaga ko'paydi.

2024- yil yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 235,0 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 29,8 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (43,7 %), Qozog'iston (13,3 %), Pokiston (13,3 %) hamda Afg'oniston (8,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



















MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-oktabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>147,2 mln AQSH dollari</p> <p>174,0 ming tonna</p> <p>97,0 % ↑</p>	<p>Karam</p> <p>44,5 mln AQSH dollari</p> <p>165,2 ming tonna</p> <p>97,3 % ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>63,2 mln AQSH dollari</p> <p>325,1 ming tonna</p> <p>18,1 % ↑</p>	<p>Gilos</p> <p>70,3 mln AQSH dollari</p> <p>32,2 ming tonna</p> <p>33,0 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>49,5 mln AQSH dollari</p> <p>33,3 ming tonna</p> <p>- 8,5 % ↓</p>	<p>O'rik</p> <p>62,2 mln AQSH dollari</p> <p>64,8 ming tonna</p> <p>53,0 % ↑</p>	<p>No'xat</p> <p>4,8 mln AQSH dollari</p> <p>16,8 ming tonna</p> <p>12,5 b. ↑</p>	<p>Olxo'ri quritilgan</p> <p>26,9 mln AQSH dollari</p> <p>19,1 ming tonna</p> <p>- 29,6 % ↓</p>
<p>Olxo'ri</p> <p>26,3 mln AQSH dollari</p> <p>32,8 ming tonna</p> <p>17,7 % ↑</p>	<p>SHaftoli</p> <p>96,9 mln AQSH dollari</p> <p>103,5 ming tonna</p> <p>44,2 % ↑</p>	<p>Yeryong'oq</p> <p>14,5 mln AQSH dollari</p> <p>8,3 ming tonna</p> <p>2,2 b. ↑</p>	<p>Sabizi</p> <p>28,1 mln AQSH dollari</p> <p>118,2 ming tonna</p> <p>90,9 % ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-oktabr)

Davlatlar	Ming tonna	MIn AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	712,4	539,6	43,7
 Qozog'iston	466,9	164,7	13,3
 Pokiston	110,0	163,9	13,3
 Afg'oniston	52,2	101,1	8,2
 XXR	74,5	64,9	5,3
 Qirg'iz Respublikasi	133,3	50,8	4,1
 Turkiya	19,2	33,9	2,7
 Belarus	18,2	15,0	1,2
 Ozarbayjon	8,2	14,9	1,2
 Gruziya	10,0	10,0	0,8
 Iroq	21,1	9,6	0,8
 Eron	7,7	9,0	0,7
 Ukraina	9,7	7,7	0,6
 BAA	11,4	6,6	0,5
 Germaniya	3,7	5,5	0,4
 Boshqa davlatlar	39,6	37,7	3,1

* qiymat ifodasidan

2024- yil yanvar-oktabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 43,7% ini), bu esa Pokiston eksport hajmiga nisbatan 3,3 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo‘yicha 2 433,4 mln AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,8 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 5,7 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (43,5 %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (39,1 %) asosiy ulushni egallagan. 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 56 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH dollari, % da.



2 433,4 (2023 y.: 2 581,0)

Jami



1 057,3 (1 037,3)

Ip kalava



952,3 (1 040,0)

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari



251,1 (274,0)

Trikotaj mato



119,4 (146,2)

Gazlamalar




34,2 (51,5)

Paypoq mahsulotlari

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 5 702,9 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 25,4 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 29,0 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (49,0 %), transport (35,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,5 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (3,6 %)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (1,0 %), moliyaviy xizmatlar (1,0 %) qurilish xizmatlari (0,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 31 924,6 mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,7% ga ko‘paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (35,1%), sanoat tovarlari (15,6%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (12,2%) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-oktabr)



9,4%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,6%

2. Ichimliklar va tamaki



2,9%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari



10,2%

4. Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar



0,9%

5. Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar



12,2%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar



15,6%

7. Sanoat tovarlari



35,1%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,7%

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,1%

10. Boshqa tovarlar



9,2%

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 535,7 mln AQSH dollariga ko‘paydi va 28 991,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2 933,4 mln AQSH dollariga yetdi.

**Tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo‘yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	30 503,6	31924,6	122,7	104,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 846,5	3 005,7	105,6	105,6	9,3	9,4
Ichimliklar va tamaki	154,6	197,9	134,3	128,0	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	914,7	918,0	87,8	100,4	3,0	2,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 073,1	3 267,2	142,2	157,6	6,8	10,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	342,7	288,7	125,7	84,2	1,1	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 027,4	3 888,2	114,4	96,5	13,2	12,2
Sanoat tovarlari	5 131,3	4 969,1	108,2	96,8	16,8	15,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	11 704,9	11 214,5	149,6	95,8	38,4	35,1
Turli xil tayyor buyumlar	1 188,1	1 195,6	114,3	100,6	3,9	3,7
Boshqa tovarlar	72,2	46,3	149,2	64,1	0,2	0,1
Xizmatlar	2 048,1	2 933,4	97,1	143,2	6,7	9,2

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-oktabr)


 XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 005,7	105,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	751,0	79,8
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	525,5	110,6
Go'sht va go'sht mahsulotlari	400,0	145,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	338,6	113,3
Sabzavotlar va mevalar	313,3	119,6
Hayvonlar uchun oзуqalar	233,6	124,4
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	186,8	107,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	130,2	97,6
Tirik hayvonlar	95,4	125,4
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	31,3	131,3
Ichimliklar va tamaki	197,9	128,0
Ichimliklar	143,8	135,7
Tamaki va tamaki mahsulotlari	54,1	111,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	918,0	100,4
Probka va yog'och-taxtalar	376,9	108,0
Metall rudalari va metall parchalari	245,0	94,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	70,1	101,7
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	57,2	91,8
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	52,6	109,4
Qog'oz massasi va makulatura	45,9	110,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	40,6	71,5
Tabiiy kauchuk	29,3	99,0
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	0,4	187,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3 267,2	157,6
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 663,9	133,3
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 365,0	2,4 b.
Ko'mir, koks va briketlar	135,7	84,2
Elektr toki	102,6	100,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	288,7	84,2
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	245,4	84,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	42,1	80,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 888,2	96,5
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 423,7	110,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	657,9	87,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	547,2	107,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	430,0	103,1
Organik kimyo moddalari	232,6	87,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	230,2	88,5
Noorganik kimyo moddalari	229,1	79,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	86,0	94,8
O'g'itlar	51,5	34,2

XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	4 969,1	96,8
Cho'yan va po'lat	2 193,3	105,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	668,4	92,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	478,1	85,0
Rezina buyumlari	360,1	80,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	335,9	82,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	327,8	107,0
Rangli metallar	312,3	111,4
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	291,3	88,6
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,7	111,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	11 214,5	95,8
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	2 684,9	76,2
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	1 119,6	80,5
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	1 052,4	89,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	2 112,1	90,1
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 655,6	94,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 655,6	122,2
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	917,8	129,9
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	866,0	116,1
Boshqa transport uskunalari	674,2	97,4
<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>	500,6	81,5
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	406,9	115,8
Metallarni qayta ishlash mashinalari	241,5	105,4
	1 195,6	100,6
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	384,8	101,3
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	373,0	93,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	132,4	86,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	124,3	97,7
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	108,7	164,3
Poyabzal	34,4	117,3
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	19,0	125,9
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	19,0	92,6

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-oktabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 36,0 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ulushi % da, hajmi mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi 168 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-oktabr)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-oktabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O‘sish sur‘ati, % da		Umumiy hajmdagi o‘rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	8 749,5	8 516,5	165,5	97,3	1	1
Rossiya	5 261,8	6 594,9	105,7	125,3	2	2
Qozog‘iston	2 427,3	2 277,2	94,3	93,8	3	3
Koreya Respublikasi	1 845,5	1 627,7	95,4	88,2	4	4
Turkiya	1 502,6	1 491,7	106,9	99,3	5	5
Germaniya	809,1	898,1	102,5	111,0	6	6
Turkmaniston	795,5	848,5	122,6	106,7	7	7
Hindiston	507,9	679,0	95,9	133,7	9	8
AQSH	381,6	466,2	124,1	122,1	13	9
Belarus	398,6	448,5	122,2	112,5	12	10
Braziliya	584,8	394,1	126,7	67,4	8	11
Litva	402,5	374,7	120,4	93,1	11	12
Chexiya	266,9	337,1	2,5 b.	126,3	18	13
Italiya	357,5	331,5	129,7	92,7	14	14
BAA	309,3	321,3	98,0	103,9	15	15
Fransiya	424,9	288,2	2,3 b.	67,8	10	16
Eron	269,6	268,5	110,3	99,6	17	17
Yaponiya	181,1	261,3	96,6	144,3	24	18
Qirg‘iz Respublikasi	247,6	230,8	114,1	93,2	20	19
Polsha	258,2	229,3	156,7	88,8	19	20



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)




Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 51,5 % bilan 16 450,3 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,4 % bilan 113,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH dollarida)



2024- yilning yanvar-oktabr oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 2 933,3 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 9,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 43,2 % ga ko'paydi.


Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa safarlar (turizm xizmatlari) (51,9 %), transport xizmatlari (20,9 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (9,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (5,8 %)ga tegishli bo'ldi.

Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining 12,0 % ini tashkil etib, uning tarkibida yuqori ulushlarni boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,8 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (3,6 %), sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (2,0 %) va boshqalar tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 4 969,1 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2% ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 15,6% ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-oktabr)

1 787,4 mln AQSH doll.
Ulushi – 36,0 %



Rossiya

1 609,1 mln AQSH
doll. *Ulushi – 32,4 %*



XXR

600,9 mln AQSH doll.
Ulushi – 12,1 %



Qozog'iston

242,5 mln AQSH doll.
Ulushi – 4,9 %



Turkiya

125,8 mln AQSH
doll. *Ulushi – 2,5 %*



Koreya
Respublikasi

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (2 193,3 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (668,4 mln AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (478,1 mln AQSH dollari), rezina buyumlari (360,1 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.